

O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI BAHOLASHDA TIL TA‘LIMI O‘QITUVCHISIGA YORDAMCHI VOSITALAR

(o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini baholashda o‘qituvchiga yordamchi vositalar)

Kutlimuratova D.A.

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi
pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada til ta‘limida o‘qituvchining raqamli savodxonligi haqida, darslarning samaradorligini orttirishda o‘qituvchining ijodkorligi, shuningdek til ta‘liming o‘ziga xos spetsifik jixatlariga quizizz platformasining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, savollar, interaktiv mashqlar, topshiriqlar, va interfoal darslar yaratish, o‘quvchining yozma va nutqiy savodxonligi, tinglab tushinishi, o‘qib tushinishini shakllantirish uchun platformaning imkoniyatlari haqda so‘z boradi.

Tadqiqot maqsadi til ta‘limi o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, darslarida o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi, oliy darajali fikrlashlarini tashkil qiluvchi topshiriqlar va mashqlardan keng foydalangan holda, bunday fikrlashlarni baholashda raqamli texnologiyalar imkoniyatlardan foydalanishni ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Xulosalar va tavsiyalar. Maqolada davlat tili darslarida onlayn platformalardan foydalanishning aniq misollari keltirildi. Quizizz platformasida o‘quvchilarning oliy darajali fikrlashini baholashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratishning ayrim qirralari tahlilga tortildi, sharhlar berildi va izohlandi. O‘zbek tili fan o‘qituvchilari va bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli resurslar yaratish va foydalanish metodikasi bilan tanishtirish jarayonida aniqlangan afzalliklar va ba‘zi mulohazali jihatlar yoritildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilni an‘anaviy o‘qitish jarayonini yangi interfoal o‘quv muhitiga aylantirishning istiqbolli usullari ko‘rib chiqilgani bilan belgilanadi. Tadqiqotda o‘zbek tili ta‘limida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari keng ekanligi, muammoni raqamli pedagogika va boshqa sohalar yutuqlariga tayanib o‘rganish va kompleks yondashuv zarurligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: platforma, servis, raqamli ta‘lim resurslari, savol, tip, shakl, interfoal mashqlar, oliy darajali fikrlash, quizizz, QR kodlar

Kirish. Til ta‘limining asosini nutqiy mavzular va grummatik mavzular tashkil qiladi. Til ta‘limi o‘qituvchisi o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga, o‘z fikrlarini mustaqil ifodalay olishga o‘rgatar ekan, mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishda darsliklarda berilayotgan o‘quv mashqlari, topshiriqlardan keng foydalanadi. Til ta‘limida milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda ana shunday nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilib mashqlar va topshiriqlar nihoyatda ko‘p berilgan.

Bugungi kun ta‘lim oluvchisi ko‘proq gadjetlar orqali bilim olishga, mustaqil

o‘rganishga odatlanmoqda. Demak bugungi kun o‘qituvchilariga darslarida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nimklarini shakllantirishda foydalanadigan mashqlar va topshiriqlarni raqamlashtirishni o‘rgatish zarurati mavjud.

Til ta’limi o‘qituvchilari ta’lim oluvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish bilan birga, ularning nutqiy tafakkuri va nutqiy kompetenligini o‘stirish ustida ham ishlaydilar. Ushbu pedagogik faoliyatida yordam beruvchi onlayn platformalaridan samarali foydalanish yo‘llarini, ya’ni o‘quvchilarning yozma nutqini, nutqiy tafakkurini, oliy darajali o‘lashini shakllantirishda Quizizz platformasining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Higher-order thinking



Draw



Open-ended



Video Response




Audio Response

1-rasm . Quizizz platformasining oliy darajali o‘ylashni aniqlash savol tiplari


Demak biz, mazkur maqolamizda ana shu 4 test tipiga batafsil misollar bilan to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Draw (chizish)– o‘quvchilarga bilganlariga ijodiy yondashishga, o‘qib eshitganini chizib ko‘rsatish imkonini beradi. YOki bo‘lmasa topshiriqlar va mashqlar bajargandagi hissiyotlari, xolatlarini aks ettirishni taklif qilish mumkin. Biz bu tipdagi savolda Iboralarni oldik va qo‘yidagi holatda yaratdik.



Yoki bo‘lmasa, matnlardagi xatolarni aniqlashda ham foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Biz qo‘yidagi talabalarning javoblaridan namunalar keltirib o‘tishni maqul ko‘rdik.




Open-ended (ochiq)-o‘quvchilarning qaysidir bir asarga fikrlarini bilish, insho, yozma ish, esse yozishni taklif qilish va bularni keyinchalik baholash mumkin. Bunda o‘quvchilar 1000 gacha belgi kiritishlari mumkin. Bu shaklning o‘ziga xosligi shundan iborat, o‘quvchi diktantni daftarga yozib, daftar sahifasini rasmga olib o‘qituvchisiga jo‘natishi mumkin.


Yoki bo‘lmasa «Globallashuv davrida o‘zbek tilining mavqeyi» mavzusida esse yozing kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Misoli uchun matn berib, o‘sha matnni tahlil qila o‘tirib o‘zlarining fikrlarini, qarashlarini bildirishlarini, yoki bo‘lmasa hikoyani davom ettirish kabi topshiriqlarni yaratish mumkin..

Bunday matnlar mazmunidan anglashiladigan asosiy mohiyatni qay darajada tushunib olganligini nazorat qilish va ilmiy va badiiy tafakkur va idroq qilish ko‘nikmalarini tekshira olishlari mumkin.




O‘qituvchi ishchi varianti




o‘quvchi gadgetidagi ko‘rinishi

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Audio response (audiojavob) -qaysidir bir harfni, so‘zni, jumlani talaffuz qilishi, she’r yoki qaysidir bir asarni ifodali o‘qish qobiliyatlarini namoyish qila oladi, o‘quvchilarda o‘z ovozlari o‘stida ishlash ko‘nikmalari shakllanishi mumkin.



O‘qituvchi ishchi varianti




O‘quvchi gadgetidagi ko‘rinishi


Xujjatlarni tug‘ri rasmiylashtirishni o‘rgatishda, misoli uchun tarjimoiy holini audio orqali o‘qituvchiga yo‘llash orqali xujjatni tuzishdagi kamchiliklarini aniq, shuningdek to‘g‘ri talaffuz qilishlarini ham nazorat qilish mumkin.

Video response (videojavob) –qaysidir bir savolga o‘quvchilardan vizual tarzda ifodalashni, jonli javob berishni, kamera oldida taqdimot qilish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Hattoki talabalardan juftliklarda ishlab dialoglarni videojavob orqali yozish topshiriqlarini ham tashkillashtirish imkonini berar ekan.


Agarda o‘qituvchi audiojavob orqali o‘quvchida qanchalik nutq ta’sirli va aniq etkazib berishlarini, chiroyli, ta’sirli va o‘z fikrlarini ravon bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish va nazorat qilib borish imkoniga bo‘lsa, bu videojavobda esa ana o‘sha chiroyli, aniq, to‘liq, ravon nutqini kamera oldida o‘zini to‘tish ko‘nikmalarini ham shakllantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Agarda qaysidir bir she’rni ifodali o‘qib, o‘ni videotasmalarga muhirlashni topshiriq qilib berish orqali o‘quvchilarning she’rning oxangiga mos oxang tovlanishlari, o‘zini qanday tutishi v.h. nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



Opros-bu tip orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzu qanday o‘zlashtirganligini, qaysidir bir mavzuga fikrlarini bilib olish bilan birgalikda, refleksiya ola oladi. Albatta bunda variantlarni o‘qituvchi o‘zi taklif qiladi va bunday sinf bilan qaysi javob ko‘proq tanlanganligini ham aniqlash imkonini beradi.



O‘qituvchi ishchi varianti



o‘quvchi gadjetidagi ko‘rinishi

Til ta’limi o‘qituvchilari bunday tipdagi topshiriqlar va mashqlarni ana shunday platformalar yordamida yaratib darslariga olib kirishda albatta biz tilga imkoniyatlardan ko‘prog‘ini ko‘rishi mumkin, g‘oyalar kelishi mumkin.

Albatta bu topshiriqlarni sinflardagi jonli darslarda, yoki bo‘lmasa masofadan tashkil qilinadigan sinxronli darslarda ham juda samarali bo‘lib qolmasdan, bunday topshiriq va mashqlarni uyga vazifa, mustaqil o‘rganish uchun yaxshigina kontent bo‘la oladi. Demak o‘qituvchi har qanday paytda ham o‘z o‘quvchisining natijalarini kuzatib borish va qayta aloqa qilish imkoniga ega bo‘ladi.

YA’ni o‘qituvchi o‘quvchilarning natijalarini ko‘rish uchun **Reports** bo‘limidan topishi mumkin.

	Sharibaeva Hurliman 7a 1 attempt		100% Accuracy	6150 Score		Email Parent	
	Gulj*** 4 attempts		78% Accuracy	5030 Score		Email Parent	

Topshiriqlarni bajargan o‘quvchilarning natijalarini ko‘rish bo‘limi

Demak Quizizz platformasida o‘qituvchi sinfni to‘liq boshqara olishi mumkin, har bir o‘quvchining ishini nazorat qilishi mumkin. Barcha o‘quvchilar birdek topshiriqni olai, lekin har bir o‘quvchi o‘z qo‘rilmasida har bir savollarga javob berib, o‘z tempida topshiriqlar va mashqlarni ishlaydi.

Mazkur servisning ushbu imkoniyatlaridan foydalanish uchun, ya’ni topshiriqlar yaratish va ularni darslarimizda foydalanish uchun albatta, biz bu servisdan ruyxatdan o‘tgan, servisning a’zosiga aylangan bo‘lishimiz kerak. Bunda

ham siz bir qancha qulayliklarga ega bo‘lasiz, ya’ni ruyxatdan o‘tishda o‘zingizning google akkuantingiz orqali foydalanishingiz mumkin, ya’ni google bilan sinxronizatsiya qilish orqali oz fursatlarda ruyxatdan o‘tib olasiz.

Har bir o‘quvchining bilim darajasini talabga mos ko‘tarish uchun ilg‘or metodik texnologiyalar zarur. Yangi ilg‘or metodik texnologiyalar bilan qurollangan, zamon bilan hamnafas o‘qitishning yangi usullarini, ya’ni raqamli texnologiyalarni to‘liq egallagan pedagogina o‘quvchilarning sifatli bilim olishiga imkoniyat yaratadi.

Shunday platformalarning birini tanlash borasida maqsadlariga erishish va bilimni egallatish ko‘zlanadi. Shunday ekan, biz tanlagan platformani darsda foydalanganimizda darsda o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlab, guruhlarda va juftliklar yangi mavzularni o‘zlashtirish, uyga vazifani tekshirish bosqichlarida qo‘llanishga bo‘ladi.

Har bir pedagog uchun darsni samarali, tushunarli va qiziqarli olib borishda ko‘makchi buladigan bu platformaning imkoniyatlarini sanab o‘taylik:

- interfoal topshiriqlar tayyorlash (viktorina, savolnoma, test, dars v.h.).
- bilim samaradorligini orttirish, har bir darsni qiziqarli, samarali olib borish
- darsni o‘yin shaklda olib borish.
- darsdan tashqarida mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish (uyga vazifalar), o‘zini o‘zi rivojlantirish
- bilim oluvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish
- bilim oluvchilarning mavzularni tushinishiga ta’sir qilish
- o‘qituvchi uchun vaqtni tejash, bilim oluvchilarning bilim darajsini aniqlash
- sinfnng mavzularni o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni aniqlash

Endi esa bu paltformaning til ta’limiga beradigan imkoniyatlarini sanab o‘taylik

- *Yozma nutqini rivojlantirish, yozma savodxonligini orttirish;*
- *O‘z fikrlarini yozma va og‘zaki ifoda qilish malakasini oshirish*
- *Oliy darajali o‘ylashini rivojlantirish*
- *ravon, aniq, to‘g‘ri, chiroyl i nutq madaniyatini orttirish*
- *topshiriq va mashqlarni mustaqil ishlash orqali qoidalarni yodlab emas tushinib olish ko‘nikmalarini shakllantirish*

“O‘quvchilarning mustaqilligini oshirig uchun ularga dastlab mashq va topshiriqni og‘zaki va yozma bajartirish, o‘z harakatlarini izohlatish maqsadga muvofiqdir. Ana shu izohlashlar mobaynida bolalarda qoidasimon xulosalar shakllanadi”. [1]

Yangi texnologiyalarning tez va shiddat bilan rivojlanib borishini e’tiborga olsak, bu platformalar vaqt o‘tgan sari yangilanib, yangi imkoniyatlar bilan to‘liqtirilib boralishi aniq. Biz bu maqolamiz nashr qilinib, o‘zbek tili fani o‘qituvchisining qo‘liga yetub borgunicha platforma yana bir imkoniyat yaratsa ajablanmaymiz.

Biz qaysi fan bo‘lmasin, nomi tilga olingan platformadan foydalanish samarali va o‘quvchiga qiziqarli etkazishda darslikga alternativ ilova hisoblanadi. Resurslarni foydalanish darsni mustahkamlab, o‘quvchilarning mavzu to‘liq o‘zlashtirishiga, «miyga qo‘nishiga» ta’sirini o‘tkazadi. Chunki, vizual ko‘rinishlarni qabul qilish orqali axborotni esda tez va uzoq vaqtga saqlanishiga yordamlashadi. Resurslarni foydalanish neyrovizuallantirishning hozirgi metodikasidir. Ya’ni, bu yangi mavzuni o‘zlashtirishga o‘quvchilarga vizual ko‘rsatishda bu resurslarning samarali bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Demak bu platforma o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning video, audio materiallarni tinglab, ularning tinglab tushinish, talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniga, audiojavob va videojavoblar esa o‘quvchilarning og‘zaki javob qilishi, jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilishi va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishi, matnli kiritish tipidagi savol shakllari esa o‘quvchilarning yozma savodxonligini ortirishda xizmat qiladi. O‘quvchilar savolning javobini matnli yozma shaklda kiritib, uning to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratiladi, eslarida saqlanib qoladi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, o‘quvchilarda matnlar bilan ish olib borish borasida ham samarali foydalanish mumkin. Til ta’limining asosi ham shu matn. Demak raqamli ta’lim resurslarini til ta’limida foydalanish samarali ekanligining guvohi bo‘ldik.

Ko‘rib o‘tganimizdek, kompyuter texnologiyalari yosh avlodning nutqiga, yozma savodxonligiga salbiy ta’sir qilishi haqidagi «mif»larning barchasiga nuqta qo‘yish mumkin ekan. O‘quvchilardagi bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda til ta’limi o‘qituvchisi birinchi navbatda o‘zi raqamli savodxon bo‘lishi kerak ekan.

Biz yuqorida platformaning imkoniyatlarini ko‘rsatib berishda o‘zbek tilidan yaratgan onlayn, interfaol topshirig‘imizni siz ham bajarib, sinfigizda o‘quvchilaringizda sinab ko‘rishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамроев Ф.Х. Ўқувчиларда адабий талаффуз кўникмаларини шакллантириш // Тил ва адабиёт талими. – Тошкент, 2011. -№1. – Б. 68-72.

2. Нисанбаева А.Қ. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. ...дис. – Т.: ТДПУ, 2008. –92б

